Ziyorat turizmi obyektlaridan foydalanishda "Halol" standartlar bo'yicha baholash.....	629
Zaripov Toxirjon Yusufboy o'g'li	
O'zbekiston sug'urta bozori infratuzilmasini takomillashtirish.....	633
Abdurazaqov Jasur Abdunasimovich	
Barqaror iqtisodiy o'sishni taminlashda davlat budjetining ahamiyatini oshirish yo'llari.....	637
Sheraliyev Nurbek Jumanazarovich	



TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH JARAYONI VA KREDITLASH AMALIYOTI TAHLILI	640
Sultonova Sevara Faxriddinovna	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MISOLIDA MILLIY MOLIYA BOZORINING SHAKLLANISHI VA BARQAROR RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	643
Samadov Temur Oybek o'g'li	
AN'ANAVIY KURASH VA DYUZDO: TEXNIK VA FALSAFIY JIHATDAN TAQQOSLAMA TAHLIL	647
Tangriyev Abdullo Tovashovich	
DIGITAL SECURITY AND CYBER THREAT FACTORS IN THE TOURISM INDUSTRY	650
Olimov Davron Olimovich	
JAHON SAVDO TASHKILOTI SIYOSATINING RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR IQTISODIYOTIGA TA'SIRI	653
Jalolov Umidjon Xudoyberdi o'g'li, Yegamberdiyev Shuxrat Satimbayevich	
РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ В КОНТЕКСТЕ УКРЕПЛЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ УЗБЕКИСТАНА	657
Турсунбоева Нилуфар Отабековна	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI	659
Faxriddinov Bahriddin	
AGROLOGISTIKA TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISHNING AGROEKSPORT SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	663
Faxriddinov Bahriddin	
MINTAQAVIY IQTISODIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISHDA INSON KAPITALI VA IJTIMOIIY SALOHIYATNING O'RNI	667
Zoirov G'olibjon Toshtemir o'g'li	
XORIJIY INVESTITSİYALARINING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI	670
Srajjidinova Nodira Shavkatovna	
STRESS-TESTLASH AMALIYOTI VA UNING TIJORAT BANKLARI BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASHDAGI ROLI	675
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
MAMLAKATIMIZDATURIZM SOHASIGA INVESTITSİYALAR KIRITILISH HOLATI VA SOHADAGI O'ZGARISH TENDENSIYALARI	679
Salomov Farrux Komil o'g'li, Hasanova Parvina	
"AKADEMIK KO'NIKMA VA KASBIY KOMPETENSIYA" FANIDA MUSTAQIL TA'LIMNING PEDAGOGIK MODELLARI: ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAHLIL VA TAKLIFLAR	683
Doniyorova Gulnoza Anvar qizi	
TA'LIM TIZIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH ORQALI INSON KAPITALINI MUSTAHKAMLASH	688
Oripova Madinabonu Mansur qizi	
REKLAMADA RANG VA PSIXOLOGIYA	691
Muxtorxonova Ozoda Axror qizi	
GO'SHT VA SUT ISHLAB CHIQRISHNI RIVOJLANITIRISH YO'NALISHLARI	694
Qurbonov Alisher Boboqulovich, Abdullaev Jasur Jabborovich	



УДК.339,125

GO'SHT VA SUT ISHLAB CHIQUARISHNI RIVOJLANITIRISH YO'NALISHLARI

Qurbonov Alisher Boboqulovich

Qarshi iqtisodiyot va pedagogika universiteti professori

Abdullaev Jasur Jabborovich

Qarshi davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

qurbonovailisher1977@gmail.com

ORCID: 0000-0002-3208-5657

Annotatsiya: Maqolada chorvachilik mahsulotlarining jamiyatdagi ahamiyati hamda ushbu soha bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlarning xulosalari yoritilgan. Shuningdek, chorvachilik tarmog'ining rivojlanishini ta'minlovchi davlat dasturlari va hujjatlari o'rganilib, xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: chorvachilik, go'sht ishlab chiqarish, sut ishlab chiqarish, davlat dasturlari, oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo'jaligi.

Abstract: The article discusses the importance of livestock products in society and presents the opinions and conclusions of scholars who have conducted research in this field. In addition, it examines government programs and policy documents aimed at developing the livestock sector and provides relevant conclusions.

Key words: livestock, meat production, milk production, government programs, food security, agriculture.

Аннотация: В статье рассматривается значение продукции животноводства в обществе, а также приводятся мнения и выводы учёных, проводивших исследования в данной области. Кроме того, изучены государственные программы и документы, направленные на развитие животноводческого сектора, и представлены соответствующие выводы.

Ключевые слова: животноводство, производство мяса, производство молока, государственные программы, продовольственная безопасность, сельское хозяйство.

KIRISH

BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) hamda jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra hozirgi kunda dunyoda 840 milliondan ortiq kishi, yoki aholining har sakkiz nafaridan biri to'yib ovqatlanish imkoniyatiga ega emas. Jami yer yuzi aholisining 30 foizida to'yib ovqatlanmaslik natijasida mikroelement va vitaminlar yetishmasligi muammosi mavjud^{1 2}. Aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda chorvachilik sohasi alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, Osiyo mamlakatlarida chorvachilik sohasi qishloq hududlarida aholini go'sht, sut, tuxum, parranda go'shti kabi mahsulotlar bilan o'zini-o'zi ta'minlash hamda ortiqcha mahsulotni bozorda sotish orqali kundalik pul daromadlarini oshirishda muhim hisoblanadi. Shuningdek, chorvaning ikkilamchi mahsuloti dehqonchilik tarmog'ida organik o'g'it sifatida ekinlar hosildorligini oshirishga xizmat qiladi. Chorvachilikni rivojlantirish aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish bilan birga daromadlarni oshiradi.

Hozirda qoramolchilikda mahsulдорlik ko'rsatkichlarining pasayib borish xavfi ortib borayotgani, shuningdek oziqa bazasidagi muammolar dehqon xo'jaliklarida chorvachilikdan olinadigan daromadning kamayishiga xavf solmoqda. Mamlakatimizda chorvachilik sohasini rivojlantirish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, chorvachilik xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, chorva ozuqa bazasini yanada kengaytirish orqali chorva mollarining mahsulдорligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ma'lumki, dehqon xo'jaliklari chorvachilik mahsulotlaridan, xususan qoramol go'shtining katta qismini ishlab chiqaradi. Shu bois dehqon xo'jaliklari uchun chorvachilikdan olinadigan daromadlar tarkibida qoramol

1 <http://www.uzbekistan-geneva.ch/oziq-ovqat-xavfsizligini-ta-minlash-ustuvor-vazifa.html>

2 A. Ali and M. A. Khan "Livestock ownership in ensuring rural household food security in Pakistan" The Journal of Animal & Plant Sciences, 23(1): 2013.



go'shti yetishtirish yuqori ulushga ega bo'lib, uni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Xususan, dehqon xo'jaliklarida qoramolchilikdan olinadigan daromad manbalarini, qoramol go'shti ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish, dehqon xo'jaliklarida go'sht ishlab chiqarishdan olinadigan daromadga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlik va munosabatlarni aniqlash, shuningdek go'sht ishlab chiqarishdan olinadigan daromadlarni oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir.

MAVZUGA OID DABIYOTLAR SHARHI

Chorvachilikda iqtisodiy samaradorlikni oshirishda yem-xashak bilan birga iqlim o'zgarishini ham o'rganishda A.Nardone va boshqalar³ ning tadqiqot ishida "...butun dunyo bo'ylab qoramollarni go'sht yetishtirish uchun odatda ochiq maydonlarda boqilishi natijasida tabiiy sharoitlarga ta'sir qiladi, biroq ularning iqtisodiy samaradorligi yuqori" bo'lishligini ta'kidlashgan. Iqlim o'zgarishi bir tomondan, chorvachilik faoliyati bilan band bo'lgan aholini chorvalarni oziqalandirish bazasini tashkil etishda, xususan ozuqa xarajatlarning ortishiga, ikkinchi tomondan haroratning oshib borishi chorva mollarning mahsuldorligiga ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi yillarda, dunyo bo'yicha deyarli barcha mamlakatlarda iqlim o'zgarishiga sabab bo'ladigan sohalar hamda amalga oshirilayotgan salbiy harakatlar, iqlimning salbiy tomonga o'zgarishiga olib kelmoqda. Vaholanki, Mitloehner va boshqalar⁴ hayvonlar salomatligi uchun 15-29°C gacha bo'lgan haroratlar o'sish samaradorligiga hech qanday ta'sir ko'rsatmasligi, biroq, 30°C dan yuqori bo'lishi kunlik vazn ortishida o'z ta'sirini ko'rsatishini aniqlashgan. Respublikamizda qoramollar bosh sonining katta qismi dehqon xo'jaliklarida parvarishlanadi hamda molxonalarda bog'liq holda boqish bilan shug'ullanishadi. Shu boisdan, dehqon xo'jaliklarida parvarishlanayotgan qoramollardan olinadigan daromadga iqlim o'zgarishi va saqlanish sharoitlari salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Chorva mollari saqlashning tasdiqlangan veterinariya qoidalari hayvonlarning normal rivojlanishi uchun maqbul sharoitlar yaratishga imkon beradi. Umuman olganda, chorva mollari yaratilgan sharoitlar, ya'ni molxonada havo aylanishi, go'ngdan tozalanishi, oziqlantirish rejimlari, sug'orish talablari va boshqa omillar ularning mahsuldorligiga ta'sir ko'rsatadi. Aks holda, dehqon xo'jaliklarida qoramolchilikdan olinadigan daromadlar juda past bo'lishi mumkin.

Thornton va boshqalar⁵ olib borgan ilmiy tadqiqot ishida "...ko'pgina qishloqlarda chorvachilik kambag'allarning yagona boyligidir, lekin u iqlim o'zgaruvchanligi va ekstremallarga juda zaifdir. Buning natijasida chorvachilik sohasi uchun xizmatlarni tashkil etish muhim" ligini ilmiy asoslashgan. Biroq, U.Qo'chchiyev⁶ olib borgan tadqiqot ishida "...chorvachilik xo'jaliklari geografik jihatdan tarqoq joylashganligi tufayli aksariyat hollarda chorvachilik sohasi uchun xizmatlarni tashkil qilish, xizmat ko'rsatuvchi subektlari uchun iqtisodiy jihatdan o'zini oqlamaydi deb hisoblaydi". Natijada, dehqon xo'jaliklarining qoramolchilikdan olinadigan daromadlarini pasayishiga olib keladi. Chunki, Sh.Fayziyeva⁷ ning olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarida xo'jaliklarning rivojlanishiga salbiy ta'sir etuvchi omillardan biri sifatida servis yetarli darajada emasligi sababli mavjud imkoniyatlardan foydalana olinmayotganligini asoslangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

BMT ma'lumotlariga ko'ra, "2050-yilga borib jahon aholisi soni 9,2 milliard kishiga yetishi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni 70 foizga oshirish zaruratini keltirib chiqarmoqda⁸". Chet-el mamlakatlarda go'sht va sut yo'nalishidagi qoramolchilik, ayniqsa, qoramol go'shti bilan ta'minlanish esa Argentina (110 kg) va Urugvayga (106 kg) to'g'ri keladi. Sut mahsulotlari bilan ta'minlanishning eng yuqori ko'rsatkichlari (aholi jon boshiga 1950 kg) Yangi Zelandiya, Daniya va Gollandiyaga xos. Yangi Zelandiya, Daniya, Gollandiya, Argentina hamda Urugvay davlatlarida sarmahsul zotlar va samarali texnologiyalar yaratilib, chorvachilikka keng joriy qilish orqali chorvachilik tarmoqlarida samaradorlik ko'rsatkichlariga erishilmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, chorvachilik tarmog'ida qoramolchilikni rivojlantirish aholida o'ringa ega.

Go'sht va go'sht mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish uchun chorvachilikda mahsuldorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda mahsuldorlikni oshirishning asosiy maqsadi yuqori daromadga erishish

3 A.Nardone, B.Ronchi, N.Lacetra, M.S.Ranieri, U.Bernabucci "Effects of climate changes on animal production and sustainability of livestock systems" Livestock Science 130 (2010) 57-69.

4 Mitloehner, F.M., Morrow, J.L., Dailey, J.W., Wilson, S.C., Galyen, M.L., Miller, M.F., McGlone, J.J., 2001. Shade and water misting effects on behavior, physiology, performance, and carcass traits of heat-stressed feedlot cattle. J.Anim.Sci. 79,2327-2335.

5 Thornton, P., Herrero, M., Freeman, A., Mwai, O., Rege, E., Jones, P. & McDermott, J., 2007. Vulnerability, climate change and livestock – Research opportunities and challenges for poverty alleviation. SAT eJournal 4 (1), 1-23.


6 Қўччиёв У.М. "Чорвачилик хўжаликлариغا хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришнинг илмий-услубий асосларини такомиллаштириш" Иқт.фан.док.(DSc) дис. автореферати 2020 й.

7 Файзиёва Ш. "Чорвачиликка ихтисослашган фермер хўжаликларининг ривожланиши ва уларнинг самарадорлигини ошириш". Иқт. фан. ном. дис. –Т., 2001. – 157

8 Позаботимся о будущем сельского хозяйства. –www.bayer.ru



va ishchi kuchi kam joylarda asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Buning natijasida xo'jaliklarda kamroq ishchi bilan ko'proq mahsulot ishlab chiqariladi, natijada daromad yaxshilanadi.




1-rasm. Bir bosh so'yilgan qoramolda go'sht mahsuldorligi, kg⁹

Tadqiqotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha bir bosh so'yilgan vaznda 2020-yilda 221,4 kilogramm, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 224,7 kilogrammni tashkil qilmoqda. Markaziy Osiyoda bu ko'rsatkich biroz pastroq, ya'ni 2020-yilda 185,8 kilogramm, 2024-yilda 189,3 kilogrammga tengdir. O'zbekistonda 2020-yilda dunyo ko'rsatkichidan 35,1 kilogramm past bo'lgan, ya'ni 186,3 kilogramm, 2024 - yilga kelib 4,7 kilogrammga pasyib 181,6 kilogrammni tashkil etgan (1-rasm).

Oxirgi 50 yil ichida jahon miqyosida go'sht ishlab chiqarish tez suratlar bilan o'sdi. Mintaqaviy jihatdan Osiyo eng yirik go'sht ishlab chiqaruvchi hisoblanib, umumiy go'sht ishlab chiqarishni 40-45 foizini tashkil etadi¹⁰.

Dunyo bo'ylab go'sht iste'mol qilish 1961-yildan boshlab 20 kilogrammga oshgan, 2024-yilga kelib taxminan bir kishi o'rtacha 42,85 kilogramm go'sht iste'mol qilgan¹¹. Aholi jon boshiga go'sht iste'molining o'sishi kuchli iqtisodiy o'tish davrini boshdan kechirgan mamlakatlarda eng ko'p qayd etilgan. Mamlakatlar bo'ylab o'zgarish yo'nalishi va tezligi juda o'zgaruvchan. Markaziy Osiyo mamlakatlarida ham bu ko'rsatkichlar ancha o'zgaragan.



2-rasm. Markaziy Osiyo mamlakatlarida aholi jon boshiga 2020–2024-yillarda go'sht iste'moli ko'rsatkichlari¹²

Markaziy Osiyo mamlakatlarida aholi jon boshiga go'sht iste'mol qilish Qozog'istonda 2024-yilda 71,73 kilogrammni tashkil etib, 2020 -yilga nisbatan 14,5 foizga oshgan. 2020-yilga nisbatan 2024-yilga kelib aholi jon boshiga go'sht iste'mol qilish Turkmanistonda 8,18 kilogrammga kamaygan. Aholi jon boshiga go'sht iste'mol qilish Markaziy Osiyo mamalakatlarida eng yuqori o'sish Tojikistonda ko'ztilgan, ya'ni 2024-yil 2020-yilga nisbatan 26,5 foizga oshgan. O'zbekistonda 2020-yilda 36,7 kilogramm go'sht iste'mol qilingan bo'lsa, 2022-yilda 42,26 kilogrammni tashkil etgan. Markaziy Osiyo mamalkatlari ichida aholi jon boshiga go'sht iste'mol qilish Tojikistonda eng kam ko'rsatkich kuzatilgan, ya'ni 2022-yilda 32,37 kilogrammni tashkil etgan.

Iqtisodiyotning o'tish davrida, ko'plab tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmining kamayishi, odamlarning qo'shimcha daromad olish imkoniyatlari cheklangan murakkab yillarda chorvachilik soha qishloq joylarda aholi

9 <https://ourworldindata.org/meat-production> dan umumlashtirilgan ma'lumotlar.

10 <https://ourworldindata.org/meat-production> dan umumlashtirilgan ma'lumotlar.

11 <https://ourworldindata.org/meat-production> dan umumlashtirilgan ma'lumotlar.

12 <https://ourworldindata.org/meat-production> dan umumlashtirilgan ma'lumotlar.




farovonligi darajasini barqaror saqlab turishga salmoqli hissa qo'shgan. Yer yuzida yashaydigan aholini sutga bo'lgan talabining 97 foizini, go'shtga bo'lgan ehtiyojini esa 50 foizini ayni chorvachilik sohasining qoramolchilik tarmog'i ta'minlaydi. Bu ko'rsatki, O'zbekistonda mos ravishda aholini sutga bo'lgan talabining 99 foizi va go'shtga bo'lgan ehtiyojini esa 75 foiziga to'g'ri keladi¹³.

O'zbekistonda chorvachilik mahsulotlari o'zining boyligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Chorvachilikning asosiy mahsuloti go'sht va sut ishlab chiqarishning o'sishi aholining asosiy oziq-ovqat mahsulotlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Aholining chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabida go'sht mahsulotlari yuqori o'rinda turadi. Sababi, go'sht tarkibida bo'lgan protein, vitamin, oqsil, aminokislotalar va mikroelementlar inson organizmi uchun zarur energiya manbai hisoblanadi¹⁴. Go'sht mahsulotlariga qoramol go'shti, parranda, qo'y, echki va cho'chqa go'shtlari kiradi. Boshqa davlatlar bilan solishtirganda Respublikamiz aholisi qoramol go'shti, qo'y va echki go'shtidan tayyorlangan mahsulotlarni iste'mol qilishni afzal ko'radi.

Aholi bir yilda iste'mol qilishi lozim bo'lgan go'sht me'yori shuni ko'rsatadiki qoramol go'shti iste'moli yuqori bo'lishi ta'kidlangan. Go'sht ma'zasi jihatidan turli xil oziq-ovqat mahsulotlari bilan yaxshi qo'shiladi, shuning uchun ham undan ko'p miqdorda har xil taomlar va mahsulotlar tayyorlash mumkin. Go'sht mushak, yog', qovurg'a va suyak to'qimalaridan tashkil topadi. Mushak to'qimasining to'yimliliigi eng yuqori bo'ladi. Unda ekstrakt moddalar, oqsil, yog', mineral moddalar, darmondorilar bor¹⁵.

Hozirgi kunda aholini ilmiy asoslangan iste'mol me'yori darajasida oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-apreldagi №01-03/1-220 sonli bayonining 1-ilovasida "Kundalik iste'mol uchun zarur bo'lgan ijtimoiy muhim turdagi oziq-ovqat mahsulotlari va ular bo'yicha iste'mol miyyorlari" tasdiqlangan. Aholining tibbiy me'yorlar bo'yicha asosiy go'sht mahsulotlari iste'mol qilish lozim bo'lgan yillik ko'rsatkichlarni quyidagi diagrammada aks ettirilgan¹⁶.



3-rasm. Aholi bir yilda iste'mol qilishi lozim bo'lgan go'sht me'yori, kilogramm¹⁷

3-rasmda ko'rinib turibdiki, aholi jon boshiga tahminan bir yilda 42,8 kilogramm go'sht iste'mol qilish to'g'ri kelmoqda. Aholi iste'mol qilishi lozim bo'lgan go'sht va go'sht mahsulotlari: qoramol go'shti 44,1foizi yoki 18,9 kilogramm, qo'y va echki go'shti 21,3foizi yoki 9,1 kilogrammi, parranda go'shti 34,6 foizi yoki 14,8 kilogramm bo'lishi zarur. Aholi iste'molidan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, go'sht mahsulotlari bozori mavjud. Respublikada 2024-yilda Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 14 foizni tashkil etadi. Viloaytda qishloq xo'jaligi bilan band bo'lgan aholining Respublikadagi ulushi 11 foizdanga tengdir. Respublikamizda qoramollar bosh soni bo'yicha ma'lumotlarni kuzatadigan bo'lsak, so'ngi 7 yilda 13,9 foizga oshgan ya'ni 2024-yilda qoramollar bosh soni 2020-yilga nisbatan 1692,3 ming boshga ko'paygan hamda 13857,6 ming boshni tashkil etmoqda. Qashqadaryo viloyatida ham qoramollar bosh soni 2020 - yilga nisbatan 2024-yilda 239,8 ming boshga ko'payib, Respublikadagi qoramollar bosh sonidagi ulushi ham 11,9 foizdan 12,2 foizga ko'paygan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aholini chorvachilik mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash hamda chorvachilik va uning tarmoqlarida ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish aholi daromadlarining oshishiga xizmat qiladi. Dehqon xo'jaliklarining imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi hamda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan tizimli qo'llab-quvvatlashlar natijasida xo'jaliklarda qoramollar bosh sonining o'sishi va ichki iste'mol bozorlarining chorvachilik mahsulotlari bilan to'yintirilishi uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda.

13 Karimov Sh.A., Karimov T.Q., "Qishloq xo'jaligida chorvachilikni tutgan o'rni". Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Toshkent. 10 may.2021 yil

14 <https://gujum.uz/uz-l/salomatlik-uz-l/goshtlar-va-uning-inson-organizmiga-ta-siri/>

15 <http://hozir.org/1-mashgulot-sana-mavzu-gosht-va-goshtli-mahsulotlarning-ozuqav.html>

16 Lex.uz

17 Olingan ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi.



Dehqon xo'jaliklarida qoramolchilikdan olinadigan daromad bilan unga ta'sir etuvchi tanlab olingan omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash natijasida ularning o'zaro ta'sir darajasi 89,5 foizni tashkil etishi belgilandi (qoramol bosh soni, mahsuldor qoramollar mavjudligi, qoramolchilikdan buzoq va sut olinishi, qoramol sotilishi, bo'rdoqiga boqilgan qoramolning sotilishi, ekin maydoni, dehqon xo'jaligi boshlig'ining ma'lumoti, jinsi, yoshi va asosiy ish faoliyati kabi omillar tanlab olingan).

Dehqon xo'jaliklarida qoramolchilikda go'sht ishlab chiqarishdan olinadigan daromadni oshirishda bo'rdoqiga boqilgan qoramol sotishdan olingan daromad, qoramollarni sotishdan tushgan daromad, oila boshliqlarining qishloq xo'jaligi bo'yicha bilim va malakasining oshishi, mahsuldor qoramollar mavjudligi kabi ko'rsatkichlar muhim omil ekanligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mitloehner, F. M., Morrow, J. L., Dailey, J. W., Wilson, S. C., Galyen, M. L., Miller, M. F., & McGlone, J. J. (2001). Shade and water misting effects on behavior, physiology, performance, and carcass traits of heat-stressed feedlot cattle. *Journal of Animal Science*, 79, 2327–2335.
2. Thornton, P., Herrero, M., Freeman, A., Mwai, O., Rege, E., Jones, P., & McDermott, J. (2007). Vulnerability, climate change and livestock – Research opportunities and challenges for poverty alleviation. *SAT eJournal*, 4(1), 1–23.
3. Qo'chchiev, U. M. (2020). Chorvachilik xo'jaliklariga xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. Iqt. fan. dok. (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati.
4. Fayzieva, Sh. (2001). Chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining rivojlanishi va ularning samaradorligini oshirish. Iqt. fan. nom. dissertatsiyasi. Toshkent.
5. Primqulov, M. M. (2023). Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda intensiv usullardan samarali foydalanish. *International Journal of Agrobiotechnology and Veterinary Medicine*, 2(05).
6. Toshmurotov, A. A. (2006). Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash. Iqt. fan. nom. dissertatsiyasi avtoreferati. T.: Al-Faba Servis MChJ.
7. Sadullaev, U. N. (2020). Go'sht va sut yetishtirish sohasini modernizatsiyalashning asosiy yo'nalishlari. Iqt. fan. nom. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent.
8. Cohen, J. E. (2001). World population in 2050: assessing the projections. *Conference Series – Federal Reserve Bank of Boston*, 46, 83–113.
9. Pardaev, X., & Hasanov, Sh. (2020). Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish zanjiri sub'ektlari o'rtasida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishning nazariy asoslari. *Ilmiy-amaliy Agroiqtisodiyot jurnali*, 1(15).
10. Maxmadiyeva, S. A. (2023). Mamlakatimizda dehqon xo'jaliklari tashkil etishni qo'llab-quvvatlash orqali aholi daromadlarini oshirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar. *Scientific Journal. Impact Factor 2023: 5.789*.
11. Mabe, L. K., Antwi, M. A., & Oladele, O. I. (2010). Factors influencing farm income in livestock-producing communities of North-West Province, South Africa. *Livestock Research for Rural Development*, 22(8).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>